



SUN'IY INTELLEKT VA AXLOQIY MUAMMOLAR: IJTIMOYIY- FALSAFIY TAHLIL

Xamidov Shukurullo Muqimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-8543-0025>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21623761>

ARTICLE INFO

Received: 21st July 2026

Accepted: 22nd July 2026

Published: 27th July 2026

KEYWORDS

sun'iy intellekt, axloq, raqamli transformatsiya, algoritmik adolat, axborot xavfsizligi, inson huquqlari, texnologik taraqqiyot, kiberxavfsizlik, falsafa.

ABSTRACT

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi va uning jamiyat hayotiga ta'siri bilan bog'liq axloqiy muammolar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlardagi o'rni yoritilib, algoritmik adolat, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, inson erkinligi, javobgarlik, mehnat bozori transformatsiyasi hamda inson va mashina o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi kabi masalalar o'rganiladi. Tadqiqot natijasida sun'iy intellektidan foydalanishda axloqiy tamoyillarni shakllantirish va insonparvarlik qadriyatlarini saqlash bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. XXI asr fan va texnologiyalar taraqqiyoti tarixida sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Dastlab murakkab hisob-kitoblarni bajarish vositasi sifatida yaratilgan sun'iy intellekt bugungi kunda iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, transport, sanoat va davlat boshqaruvi kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda.[3] Natijada sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. Biroq texnologik taraqqiyotning jadallashuvi bilan bir qatorda uning axloqiy oqibatlari ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Sun'iy intellekt tizimlarining mustaqil qaror qabul qilishi, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashi, inson mehnatining o'rnini bosishi va ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi yangi falsafiy hamda axloqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli sun'iy intellekt va axloqiy muammolarni o'rganish zamonaviy falsafaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellektning falsafiy va axloqiy jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. A. Tyuring sun'iy intellektning nazariy asoslarini ishlab chiqib, mashinalarning fikrlash qobiliyati haqidagi masalani ilmiy muomalaga kiritdi. N. Bostrom sun'iy intellektning istiqboldagi rivojlanish xavflarini tahlil qilib, inson nazoratidan chiqib ketuvchi superintellekt ehtimoli haqida fikr yuritadi. L. Floridi axborot falsafasi doirasida sun'iy intellektning axloqiy va ontologik jihatlarini tadqiq etadi. Y. Xarari esa sun'iy intellektning siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilib, insoniyat kelajagi bilan bog'liq muhim savollarni ilgari suradi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda algoritmik diskriminatsiya, ma'lumotlar xavfsizligi, inson huquqlari va texnologik adolat masalalari eng ko'p muhokama qilinayotgan muammolar qatoriga kiradi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dialektik metod va falsafiy refleksiya usullaridan foydalanildi. Sun'iy

intellektning rivojlanish tendensiyalari hamda uning axloqiy oqibatlari zamonaviy falsafiy konsepsiyalar asosida tahlil qilindi.

Materiallar va metodlar

Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan axloqiy muammolarni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda sifat (qualitative) metodologiyasi asos qilib olindi, chunki sun'iy intellektning jamiyat hayotiga ta'siri faqat texnologik jihatlar bilan emas, balki inson qadriyatlari, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotning nazariy bazasini sun'iy intellekt etikasi, axborot falsafasi, texnologiyalar falsafasi hamda raqamli jamiyat konsepsiyalariga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi [1].

Tadqiqot materiallari sifatida sun'iy intellektning ijtimoiy va axloqiy jihatlariga bag'ishlangan monografiyalar, xalqaro ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar, UNESCOning "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalari", OECDning sun'iy intellekt tamoyillari, Yevropa Ittifoqining sun'iy intellektni tartibga solishga oid hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi [3]. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi va ommaviy kommunikatsiya sohasidagi amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham o'rganildi [7].

Muhokamav a natijalar

Sun'iy intellekt tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni; Sun'iy intellekt — inson aqliy faoliyatiga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish kabi funksiyalarni bajaruvchi dasturiy va texnik tizimlar majmuasidir.[5]

Mazkur texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish imkonini bermoqda.

Algoritmik adolat va diskriminatsiya muammosi; Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlar asosida ishlaydi. [6] Agar ushbu ma'lumotlar noto'g'ri yoki bir tomonlama bo'lsa, algoritmlar ham adolatsiz qarorlar qabul qilishi mumkin.

-ishga qabul qilish tizimlarida ayrim guruhlariga nisbatan kamsitish;

-kredit ajratishda adolatsiz baholash;

-yuzni aniqlash texnologiyalaridagi xatoliklar.

Bu holat algoritmik diskriminatsiya deb ataladi va zamonaviy axloqiy muammolarning eng muhimlaridan biri hisoblanadi.[7] Shu sababli sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda adolat, shaffoflik va javobgarlik tamoyillariga rioya qilish zarur.

Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi muammosi; Sun'iy intellekt samarali ishlashi uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'adi va qayta ishlaydi. Bunday ma'lumotlar orasida shaxsiy hayotga oid axborotlar ham mavjud. Natijada quyidagi xavflar yuzaga keladi.[8] Shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, kuzatuv texnologiyalarining kengayishi, inson erkinligining cheklanishi, raqamli nazoratning kuchayishi. Falsafiy nuqtai nazardan ushbu muammo inson qadr-qimmati va erkinligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi mehnat bozori va bandlik tizimining transformatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya, logistika va boshqa ko'plab sohalarda avtomatlashtirish jarayonlarining keng joriy etilishi natijasida takrorlanuvchi va oddiy operatsion vazifalarni bajarishga asoslangan kasblarga

bo'lgan ehtiyoj bosqichma-bosqich kamayib bormoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, mashinali o'qitish, robototexnika va kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarda yangi kasblar hamda mutaxassisliklar shakllanmoqda. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun xodimlardan zamonaviy raqamli kompetensiyalarni egallash, kreativ fikrlash, muammolarni kompleks hal etish va texnologik o'zgarishlarga moslashish ko'nikmalarini talab etmoqda.[9] Uzluksiz ta'lim, malaka oshirish va qayta kasbiy tayyorlash tizimlarining ahamiyati yanada ortib, inson kapitalini rivojlantirish sun'iy intellekt davrida iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli davlat, ta'lim muassasalari va ish beruvchilarning hamkorligi asosida mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash, yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda texnologik o'zgarishlarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan samarali siyosatni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Javobgarlik muammosi; Sun'iy intellekt mustaqil qaror qabul qilgan hollarda javobgarlik kim zimmasida bo'lishi masalasi murakkab falsafiy va huquqiy muammo hisoblanadi. Masalan; avtonom transport vositasi avariya sodir etsa, tibbiy diagnostika tizimi xato tashxis qo'ysa, harbiy sun'iy intellekt noto'g'ri qaror chiqarsa. Bunday vaziyatlarda javobgarlik ishlab chiquvchi, foydalanuvchi yoki tizim egasi o'rtasida qanday taqsimlanishi lozimligi bo'yicha yagona yondashuv hali shakllanmagan.

Sun'iy intellekt va inson erkinligi o'rtasidagi munosabat zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning eng dolzarb masalalaridan biridir. Falsafada erkinlik insonning mustaqil fikrlashi, ongli tanlov qilishi va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni zimmasiga olishi bilan izohlanadi. Biroq sun'iy intellektga asoslangan algoritmlarning keng qo'llanilishi insonning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.[10] Xususan, tavsiya algoritmlari foydalanuvchiga ma'lum turdagi axborot, mahsulot yoki xizmatlarni ustuvor ravishda taklif etish orqali uning tanlov doirasini toraytirishi mumkin. Reklama tizimlari foydalanuvchining qiziqishlari va xulq-atvorini tahlil qilib, iste'mol qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot filtrlari esa insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi ma'lumotlar oqimini algoritmik tarzda saralab beradi. Natijada foydalanuvchi ko'pincha muqobil qarashlar va turli nuqtai nazarlardan cheklangan holda axborot iste'mol qiladi. Shu sababli sun'iy intellektidan foydalanishda algoritmlarning shaffofligi, foydalanuvchining axborot tanlash erkinligini ta'minlash, inson nazoratini saqlab qolish hamda raqamli manipulyatsiyaning oldini olish zamonaviy axborot jamiyatida inson erkinligini himoya qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ular insonning qarashlari va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellektidan foydalanishda inson avtonomiyasi va erkin tanlov huquqini himoya qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Sun'iy intellekt va inson qadri muammosi; Texnologik taraqqiyot sharoitida insonning jamiyatdagi o'rni va qadri haqidagi savollar yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Ayrim futuristik nazariyalarda sun'iy intellekt inson imkoniyatlaridan ustun kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Biroq inson; axloqiy ongga ega, ijodkorlik qobiliyatiga ega, ma'naviy qadriyatlarni yaratadi, mas'uliyat hissga ega.

Sun'iy intellektni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bir qator fundamental axloqiy tamoyillarga asoslanishi zarur. Avvalo, inson manfaatlarining ustuvorligi tamoyili sun'iy intellekt tizimlari inson farovonligi, xavfsizligi va ijtimoiy manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini anglatadi. Adolat va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyili algoritmlarning irq, jins, yosh, millat yoki boshqa belgilar asosida kamsituvchi qarorlar qabul qilishining oldini olishni nazarda tutadi. Shaffoflik va tushuntiriluvchanlik tamoyiliga ko'ra, sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlarning mantiqiy asoslari foydalanuvchilar va mutaxassislar

uchun tushunarli bo'lishi kerak. Maxfiylik va ma'lumotlar himoyasi tamoyili shaxsiy ma'lumotlarni qonuniy yig'ish, saqlash va qayta ishlashni hamda foydalanuvchilarning axborot daxlsizligini ta'minlashni talab etadi. Xavfsizlik va ishonchlik tamoyili sun'iy intellekt tizimlarining barqaror, xatosiz va turli tahdidlarga bardoshli ishlashini ko'zda tutadi.[11] Shu bilan birga, javobgarlik va nazorat tamoyili sun'iy intellekt faoliyati ustidan inson nazoratining saqlanishini hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar uchun mas'uliyatning aniq belgilanishini taqozo etadi. Nihoyat, inson huquqlariga hurmat tamoyili sun'iy intellektni rivojlantirish va undan foydalanishda inson qadr-qimmati, erkinliklari hamda fundamental huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etishni anglatadi.[12] Mazkur tamoyillarga amal qilish sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat manfaatlariga mos, axloqiy jihatdan mas'uliyatli va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, algoritmik diskriminatsiya, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, javobgarlik, bandlik va inson erkinligi bilan bog'liq murakkab axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda insonparvarlik, adolat va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa texnologik taraqqiyotning barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turing A. Computing Machinery and Intelligence. – Mind, 1950.
2. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford University Press, 2014.
3. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford University Press, 2013.
4. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson, 2021.
5. Harari Y.N. Homo Deus. – London: Vintage, 2017.
6. Tegmark M. Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence. – New York, 2018.
7. Coeckelbergh M. AI Ethics. – MIT Press, 2020.
8. Kaplan J. Artificial Intelligence: What Everyone Needs to Know. – Oxford University Press, 2016.
9. UNESCO Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris, 2021.
10. European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy AI. – Brussels, 2019.
11. OECD Principles on Artificial Intelligence. – Paris, 2019.
12. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva, 2016.
13. Floridi L., Cowls J. A Unified Framework of Five Principles for AI in Society. – Harvard Data Science Review, 2019.
14. O'zbekiston Respublikasining raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
15. BMT va UNESCOning sun'iy intellekt etikasi bo'yicha hisobotlari